PROBATSIYA NAZORATIDAGI SHAXSLAR JINOYATINING OLDINI OLISHDA IJTIMOIY MOSLASHTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Abdilxamedov Abbos Abilatibovich
Toshkent viloyati Ichki ishlar Bosh boshqarmasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish tizimining mazmun-mohiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy moslashtirish, bandlik, psixologik ko‘mak.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы предупреждения преступности, при этом особое внимание уделяется сущности системы реинтеграции в общество лиц, освобожденных из пенитенциарных учреждений.*

Ключевые слова: *профилактика преступности, социальная реинтеграция, трудоустройство, психологическая поддержка.*

Abstract. *This article examines issues of crime prevention, with particular attention paid to the essence of the system for reintegrating individuals released from penal institutions into society.*

Keywords: *crime prevention, social reintegration, employment, psychological support.*

Kirish

Jaxonda sodir etilayotgan jinoyatlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat jazolash choralari bilan cheklanmay, balki jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jinoyat sodir etgan shaxslarning qonuniy jazo muddatini o‘tab bo‘lganidan keyin jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmasligi aksariyat hollarda qayta jinoyat sodir etishini sabab bo‘lmoqda. Shu bois, jinoyatlarni sodir etilishini barvaqt oldini olishda sobiq mahkumlarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj, huquqbuzarlikka moyil shaxslarni **ijtimoiy moslashtirish** dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashtirish — bu jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoki uzoq vaqt davomida noqulay ijtimoiy muhitda bo‘lgan shaxslarning jamiyatda qabul

qilingan xulq-atvor meyorlari, qadriyatlar va ijtimoiy rollarga moslashish jarayonidir. Bu jarayon ikkita asosiy maqsadni ko‘zlaydi. Shaxsga ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatish orqali uning muammolarini hal etish va jamiyatni yangi jinoiy tahdidlardan himoya qilish.

Ijtimoiy moslashtirish tadbirlari asosan quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Mehnat va ish bilan bandligini ta’minlash-ijtimoiy moslashtirishning eng muhim ustuni — bu shaxsni ish bilan ta’minlashdir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, qayta jinoyatlarning aksariyati doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Shaxsni foydali mehnatga jalb etish uning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi va jinoiy yo‘l bilan pul topish istagini yo‘qotadi. Buning uchun davlat tomonidan sobiq mahkumlarni ishga qabul qilish uchun tadbirkorlarga kvotalar va soliq imtiyozlari berish amaliyoti keng qo‘llaniladi.

Bugungi kunda, Probatsiya xisobida turib, jazo o‘tab kelayotgan nazorat ostidagi shaxslarni takroran jinoyat sodir etishlarini oldini olish, bunda birinchi navbatda ish bilan bandligini ta’minlash, yuqori maoshli oylikli ishga joylashishlarida ko‘maklashish, imtiyozli kredit, subsidiyalar ajratish, tadbirkorlikka yo‘naltirish borasida bir qator amaliy tadbirlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoni bilan ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari miqdoridagi bir martalik nafaqa pulini uni tayinlashning amaldagi tartibi saqlab qolingan holda, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali to‘lash tartibi belgilangan. **{1}**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyun kunidagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-son qarori qarori qabul qilinib, mazkur qaror asosida jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiylashuvini ta’minlash va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirganlarga haq to‘lashning eng kam miqdorining o‘n baravari miqdorida “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish belgilab berildi.

Dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi quyidagi shaxslarga berilishi belgilandi.

Jumladan,

-boshlamoqchi bo‘lgan tadbirkorlik, me’morchilik yoki hunarmandchilik faoliyatining natijadorligi va daromadli ekanligi;

-mahalla fuqarolar yig‘inining ijobiy tavsiyasi;

-kam ta’minlangan yoki yolg‘izligi;

-qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan yoki voyaga yetmagan farzandi borligi;

-ko‘p (4 va undan ortiq) farzandi borligi va moddiy ko‘makka muhtojligi;

-noturar joylarda istiqomat qilayotganligi. **{2}**

Mazkur qaror asosida birgini Toshkent viloyatida yashovchi Probatsiya bo‘linmalari xisobida turgan nazorat ostidagi shaxslarga jami o‘tgan yillar davomida 3 mlrd-dan ortiq mablag‘lar tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun yo‘naltirildi.

O‘tgan yillar davomida, Toshkent viloyatida yashovchi Probatsiya bo‘linmalari xisobida turgan 14 mingdan ortiq nazorat ostidagi shaxslar ishtirokida hududiy Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazlari bilan hamkorlikda 426 marotaba “Ishga marhamat” mehnat yarmarkalari o‘tkazish orqali nazoratdagi shaxslarning ish bilan bandligi ta’minlandi. **{3}**

Kasb-hunarga o‘rgatish va qayta tayyorlash-zamonaviy mehnat bozori tez o‘zgarib bormoqda. Jazoni o‘tash davrida yoki undan keyin shaxslarning talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga (masalan, qurilish, axborot texnologiyalari, xizmat ko‘rsatish sohasi) o‘qitilishi ularning jamiyatga tezroq integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27 mart kunidagi “Jazoni ijro etish muassasalaridagi yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 117-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning maqsadi etib, jazoni ijro etish muassasalarida jazo o‘tayotgan yoshlarni quyidagi kasblarga o‘qitish va o‘rgatish belgilandi.

(a) jazoni o‘tayotgan yoshlarni o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirish;

(b) tasdiqlangan o‘quv dasturlari doirasida jazoni o‘tayotgan yoshlar sifatli bilim olishi va zamonaviy raqamli kasblarga ega bo‘lishini ta’minlash;

(v) jazoni o‘tayotgan yoshlar zamonaviy raqamli kasblarni egallashi uchun ularni zarur darajada xorijiy tillarga (ingliz, rus, xitoy va boshqalar) o‘qitish;

(g) jazoni o‘tayotgan yoshlar jazodan ozod etilganidan so‘ng ularni jamiyatga integratsiya qilish maqsadida mehnat bozorida talab etiladigan kasblarni egallashi uchun ularda mehnat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash;

(d) jazoni o‘tayotgan yoshlarni kasbga yo‘naltirish orqali individual rivojlantirish, ularda jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish. **{4}**

Psixologik va ma’naviy ko‘mak berish-ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi muhit inson ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Ko‘p hollarda sobiq mahkumlarda jamiyatdan begonalashish, agressiya, tushkunlik va qo‘rquv hissi kuzatiladi. Psixologik reabilitatsiya shaxsga o‘ziga bo‘lgan ishonchni qaytarishga,

stressga chidamlilikni oshirishga va nizoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Probatsiya bo‘linmalarida xisobda turgan nazorat ostida turgan shaxslarni jinoyat va huquqbuzarlik sodir etishlarini barvaqt oldini olish, jamiyatga moslashuvini ta’minlash maqsadida “E-Psixologik portret” tizimi ishga tushurildi. Bu tizim orqali xisobda turgan nazoratdagi shaxslarni psixologik portretini tuzgan holda o‘rganilib, tiofalarga ajratish va muammolarini aniqlash, aniqlangan muammolari bo‘yicha Probatsiya to‘g‘risidagi qonunda belgilangan hamkor tashkilotlar bilan manzilli ishlar olib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

Oilaviy muhitni tiklash-oila—ijtimoiy nazorat va qo‘llab-quvvatlashning eng kuchli institutidir. Ijtimoiy moslashtirish jarayonida shaxsning oilasi va yaqin qarindoshlari bilan aloqalarini tiklashga alohida e’tibor beriladi. Oila a’zolarining ma’naviy daldasi insonni jinoiy yo‘lga qayta kirishdan asrovchi asosiy qalqon hisoblanadi. Bu borada Probatsiya xisobiga olingan har bir nazorat ostidagi shaxslarga Probatsiya to‘g‘risidagi qonunning 20-moddasida “aholi o‘rtasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladigan fuqarolarni aniqlaydi hamda mazkur fuqarolarning roziligi bilan ularni fuqarolar yig‘ini bayoni asosida probatsiya nazoratidagi shaxslarga jamoat tarbiyachisi etib biriktiradi”**{5}**-deb belgilangan tartibdi murabbiylar biriktirilib, doimiy nazorat o‘rnatilmoqda.

Ijtimoiy moslashtirish samaradorligining huquqiy asoslari muvaffaqiyatli reabilitatsiya tizimi nafaqat huquq-tartibot organlari (ichki ishlar, Probatsiya xizmati), balki mahalliy hokimiyat organlari, bandlik markazlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va keng jamoatchilikning hamkorligini talab etadi. Innovatsion ijtimoiy moslashtirish markazlarining tashkil etilishi, ularda "yagona oyna" tamoyili asosida hujjatlarni tiklash, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va turar joy bilan ta’minlash xizmatlarining yo‘lga qo‘yilishi jinoyatchilik sonini keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchilikning oldini olishda ijtimoiy moslashtirish shunchaki xayriya yoki insonparvarlik aksiyasi emas, balki **davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashning strategik vositasidir**. Shaxsni jazolash orqali undan qasos olish emas, balki uni sog‘lom turmush tarziga qaytarish jamiyatdagi umumiy kriminogen vaziyatni sog‘lomlashtiradi. Ijtimoiy moslashtirish tizimini yanada takomillashtirish kelgusida jinoyatlarning barvaqt oldini olishda eng yuqori natija beruvchi omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-17-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyun kunidagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-son qarori.

3. Toshkent viloyati IIBB JXX Probatsiya boshqarmasining “Xisobotlar to‘plami”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27 mart kunidagi “Jazoni ijro etish muassasalaridagi yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 117-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 7 avgust kunidagi “Probatsiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-938-son qonuni.